

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**HAYITOV JAMSHID XOLVOYEVICH**

**OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILiy-IQTISODIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
economic sciences**

**Hayitov Jamshid Xolvoyevich**

Obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantrishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini  
takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida)” ..... 3

**Хайитов Жамшид Холвоевич**

Совершенствование организационно-экономического механизма развития  
услуг по благоустройству ..... 27

**Xayitov Jamshid Xolvoyevich**

Organizational and economic mechanism for improving the system of  
improvement services in Uzbekistan (using the example of Samarkand region)... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**HAYITOV JAMSHID XOLVOYEVICH**

**OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4371 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web – sahifasi ([www.sies.uz](http://www.sies.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirzaev Kulmamat Djanzakovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tuxliyev Iskandar Suyunovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Murtazayev Olim**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel:(99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: [siyes\\_info@edu.uz](mailto:siyes_info@edu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; Faks: (99866) 231-12-53, e-mail: [siyes\\_info@edu.uz](mailto:siyes_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.E.Po'latov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**Sh.O.Kuvandikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

**M.T.Alimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholi sonining o'sib borishi bilan shaharlarning yiriklashuvi, sanoatning jadal rivojlanishi ta'sirida atrof-muhitni toza saqlash muammosi keskinlashib, obodonlashtirish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, "dunyo bo'yicha har yili 2 milliard tonnadan ortiq qattiq maishiy chiqindi hosil bo'lishi hamda ular kamida 33 foizi ekologik jihatdan xavfsiz bo'lmagan usullar bilan qayta ishlanishi"<sup>1</sup> aniqlangan. Tahlillarga ko'ra "dunyo chiqindisining 23 foizga yaqin qismi Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududlarida shakllansa, bu ko'rsatkich Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida eng kam – 6 foizni tashkil etadi"<sup>2</sup>. Bu esa global miqyosda obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tadqiq etishning dolzarbligini namoyon etmoqda.

Jahon global iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot sanoatlashuvining jadallashuvi sharoitida obodonlashtirish xizmatlarini samarali tashkil etish asosida atrof-muhitni toza saqlash muammolariga yo'naltirilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Obodonlashtirish xizmatlarini boshqarish va rejalashtirishni takomillashtirish, moliyalashtirish va sarmoya jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanish, "aqlli shahar" konsepsiyasi doirasidagi obodonlashtirish xizmatlarini tashkil etish, ekologik barqarorlik va yashil texnologiyalardan foydalanish, obodonlashtirish sohasidagi huquqiy me'yorlarni takomillashtirish, jamoatchilik nazorati va fuqarolik ishtiroki mexanizmlarini kuchaytirish, obodonlashtirish sohasida kadrlar salohiyatini oshirish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonlarini to'g'ri va samarali tashkil etishda obodonlashtirish xizmatlari tizimini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga ko'ra, mamlakatimizda "qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 100 foizga, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65% ga oshirish"<sup>3</sup> muhim vazifa sifatida belgilangan. Bularning barchasi respublikamiz va uning hududlarida obodonlashtirish xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda obodonlashtirish xizmatlarni tashkil etish, shuningdek, mazkur xizmatlarni hududiy klasterlarini shakllantirish hamda ularni rivojlantirish bo'yicha kelgusi taraqqiyot parametrlarini ishlab chiqish kabi muammolarni chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot

<sup>1</sup> <https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-chiqindi-muammosi-qay-tarzda-hal-etiladi>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 18-martdagi PQ-172-son "2022 – 2026-yillarda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291-son "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son "Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 125-son "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son qarori)", 2013-yil 10-yanvardagi 4-son "Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2013-yil 3-dekabrda 315-son "Respublika aholi punktlarida sanitariya jihatidan tozalash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot mavzusi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ilmiy tadqiqotlari yo'nalishlariga mos keladi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Xizmatlar iqtisodiyotini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanishga oid dastlabki tadqiqotlar F.Kotler, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, R.Normann, G.Assel, P.Doyl, K.Xaksever, B.Render, R.Rassel, V.I.Merdik, V.I.Shiray, V.Ye.Nikolaychuk, R.A.Fatxudinov., T.A.Agapova, S.F.Seregina, M.B.Radkiyevich, V.I.Smetanin, H.N.Hsiyeh, J.P.Nettiaratchi, J.Jaramillo, K.R.Reddy, J.Ye.Bogner, V.I.Dall, S.I.Ojegov, V.I.Dal, K.Lavlok, B.N.Gerasimov, Ya.I.Rebak, O.M.Xarkova, V.N.Paraxina kabi xorijlik olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент//Экспресс-курс.2-е изд./перевод с англ. Под ре. Божун С.Г. СПб.: Питер. 2005. С-301., К.Р.Макконнелл, С.Л.Брю. Экономиск-Принципк, проблемы и политика.//В 2-х томах. Перс ангю-Таллин. Римол. 1993. Т.: 1-398 С., Normann R. Service management strategy and leadership in service business/EDR Normann-NY/ 2000., Ассель Г. Маркетинг: принципы и стратегия: Учебник для вузов. М.: ИНФРА-М., 2001 С.337., Дойл П. Менеджмент: стратегия и тактика. Спб: Питер, 1999. С. 448., Хаксевер К., Рендер Б., Рассел Р., Мердик Р Управление и организация сефере услуг. М., 2002. С.25., Ширай В.И. Мировая экономика и международные отношения: Учебное пособие. М.: Дашков И.К. 2003. С. 226., Николайчук В.Е. Маркетинг и менеджмент услуг//Деловой сервис. Спб.: Питер, 2005. С.608., Фатхудинов Р.А.Стратегический менеджмент.: Учебник.: -М.ЮНИТИ-ДАНА, 2000. -727 С., Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика.: Учебник/Под общей ред.д.э.н., проф. А.В.Синдоровича; МГУ им М.В.Ломоносова 4-е изд., перераб и доп.-М.: Дело и Сервис, 2007- 214 с., Радкевич М.В., Шипилова К.Б. Управление отходами. Ташкент: ТИИИМСХ, 2021., Сметанин В.И., Соломин И.А., Соломина О.И. Учебное пособие по курсовому проектированию: Проект полигона захоронения твердых бытовых отходов. М.: МГУП, 2006, 68 с., Hsieh H.N., Nettiaratchi J.P., A.El.Haggar., Meegoda J.N., and Stressel R.I. (2008). "Towards the development of sustainable lendfills". Geo Congress, ASCE, Reston, VA, 344-345. Jaramillo J. Guidelines for the design, construction and opyeration of manual sanitary landfills. Pan Amyerican Centyer for Sanitary Engineeyering and Enviromental Sciences, 2003., 299 p. Reddy K.R. and Bogner J.E. "Bioreactor landfill engineering for accelerated

Xizmatlar sohasi rivoji masalalari bo'yicha O'zbekistonlik olimlardan N.T.Tuxliyev., M.M.Muxammedov, M.E.Po'latov, M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, I.S.Tuxliyev, J.R.Zaynalov, K.B.Urozov, N.U.Arabov, D.X.Aslanova, M.T.Alimova, I.S.Ochilov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davomida o'rganilgan<sup>5</sup>. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "obodonlashtirish" xizmatlari bo'yicha tadqiqotlar faqat turar joy-kommunal xizmatlari jihatidan ochib berilgan. Shuningdek, ko'plab tadqiqotlarda bunday xizmatlar mamlakatdagi mavjud shaharlar, tuman markazlari, shahar massivlari va qishloq aholi punktlariga zamonaviy qiyofa baxsh etish masalasi sifatida ilgari surilgan. Ammo, respublika hududlari tizimida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari etarli darajada olib borilmagan. Bularning barchasi ushbu tadqiqot ishi mavzusini tanlanishiga asos bo'ldi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining SamISI-18/1 "Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

---

stabilization of municipal solid waste". Int. e-Conf on Modern Trends in Foundation Engineering: Geotechnical Challenges and Solutions, Indian Institute of Technology, Madras, 22. Далл В.И. Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. М., 1882. Т.IV. С512., Ожегов С.И. и др. Грамматический словарь русского языка. – М.: Русский язык.1991.-432 стр., Дал В.И. Толковый словарь великорусского языка.2-е изд. М., 1882. Т.IV С.512. Лавлок К. Маркетинг услуги: Персонал, технологии, стратегии/Пер.с англ.4-е изд.М.: Издательский дом., Герасимов Б.Н. Формирование инновационной деятельности в благоустройстве города// (Электронный ресурс)//Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2019. №9-1. (дата обращения: 19.12.2021). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovaniye-innovatsionnoy-deyatelnosti-v-blagoustroystve-goroda>., Рыбак Я.И. Озеленение и благоустройство городской среды. // (Электронный ресурс)//Вестник Науки и Творчества.-2016. - №7 (7). (дата обращения: 19.12.2021). URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/ozeleneniye-i-blagoustroystvo-gorodskoy-sredy>. Харьковская О.М.Оценка уровня жизни населения муниципального образования/О.М.Харькова, Ю.И.Гусева//Мировая наука, 2018. - №2 (11). С.96-99., Парахина В.Н.Муниципальное управление/В.Н.Парахина, Е.В.Галеев, Л.Н.Панькова.-Москва: КноРус, 2018, - 544 с. 97-с.

<sup>5</sup> Tuxliyev N., Abdullayeva T. Ekologicheskiy turizm: sushnost, tendensiya i strategiya razvitiya. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Toshkent – 2006. – 415 str., Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. "Zarafshon" nashriyoti, 2017. – 300 b., Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари.//Сервис, Илмий-оммабор журнал, №1 2009 йил 38-46 бетлар., Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик.2-нашр.-Т.: "Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи", 2021. 588 б., Мирзаев Қ.Ж. Агросервис иқтисодиёти. Монография. Т."Иқтисод-молия". 2013 йил. 13-бет., И.С.Тухлиев., С.А.Абдухамидов. Туризм: Назария ва амалиёт. (Учинчи нашр) – Т.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 424 б., М.Э.Пўлатов. Интеллектуал капитал ҳисоби ва таҳлили: назария ва амалиёт масалалари. Монография.-Т.: Иқтисодиёт, 2012, 166 б., Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарканд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар., К.Б.Урозов. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида бухгалтерия ҳисобининг концептуал масалалари. Монография.-Т.: -Фан, 2005.-236 б., Арабов Н.У., Артиков З.С. Сервис корхоналарида хизмат кўрсатиш сифатини ошириш. Инсон капитали ва ижтимоий ривожланиш журналы//Самарканд, СамДУ, № 1, 2021, 153-164 б., Асланова Д.Х., Алимова М.Т., Саттарова З.И., Захидов Ф.Ф., Хайдаров О.З. Агроекотуристический кластер: сущность и возможность его формирования в регионах. Монография. Самарканд. Турон – нашр. 2020. - 275 с., Очилов И.С. "Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари" мавзусидаги диссертация автореферати. Самарканд, 2010 йил 24 бет.

**Tadqiqotning maqsadi** Samarqand viloyatida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatishning nazariy asoslarini tadqiq etish;  
obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirishning ahamiyati va samaradorlik ko'rsatkichlari baholash usullarini aniqlash;  
obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatish tizimining xorij tajribasi va undan respublikada foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;  
obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish tizimini taraqqiyot bosqichlari va institusional asoslarini rivojlantirishni tadqiq etish;  
obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish tendensiyalari va mexanizmlarini takomillashtirish;  
obodonlashtirish xizmatlarini rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar tahlili va ulardan foydalanish mexanizmlarini aniqlash;  
obodonlashtirish xizmatlarini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etish;  
respublika hududlarida obodonlashtirish xizmatlarini klasterlash asosida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;  
obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib, Samarqand viloyatidagi obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatish sohasi subyektlari faoliyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda mantiqiy va taqqoslama tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va statistik tahlil, monografik tahlil, abstract-mantiqiy fikrlash, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "obodonlashtirish xizmati samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni hududlarda obodonlashtirish (ko'kalamzorlashtirish, qattiq chiqindi va chiqindixonalar bilan bog'liq xizmatlar, tungi yoritish tizimlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanishni rivojlantirish, piyodalar yo'laklarini qurish va ta'mirlash, ichki irrigasiya tarmoqlarini qurish va ta'mirlash) xizmatlari bilan bog'liq xarajatlar va ulardan olinadigan daromadlar natijasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

obodonlashtirish xizmatlari korxonalari samaradorligini baholash obodonlashtirish xizmatlari sohasining moddiy-texnik bazasi ( $MTB = 0,37$ ), mehnat resurslari ta'minoti ( $MRT = 0,24$ ) va malakalarini oshirish ( $MO = 0,39$ ) omillarining sohaga yo'naltirilgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari darajasini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarkibiga ekologik va obodonlashtirish muammolarini tadqiq etishga yo'naltirilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini hudud

muvofiglashtiruvchi kengashi orqali uyg'unlashtirilgan "Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasteri" tashkiliy tuzilmasi taklif etilgan;

obodonlashtirish xizmatlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ko'p omilli ekonometrik model asosida Samarqand viloyatida 2028-yilga qadar obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

obodonlashtirish xizmatlari korxonalari samaradorligini baholash obodonlashtirish xizmatlari sohasining moddiy-texnik bazasi ( $MTB = 0,37$ ), mehnat resurslari ta'minoti ( $MRT = 0,24$ ) va malakalarini oshirish ( $MO = 0,39$ ) omillarining sohaga yo'naltirilgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari darajasini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarkibiga ekologik va obodonlashtirish muammolarini tadqiq etishga yo'naltirilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini hudud muvofiglashtiruvchi kengashi orqali uyg'unlashtirilgan "Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasteri" tashkiliy tuzilmasi taklif etilgan;

obodonlashtirish xizmatlariga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi ko'p omilli ekonometrik model asosida Samarqand viloyatida 2028 yilga qadar obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi, amaliyotga joriy etilganligi va ularning natijalarini vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy-uslubiy ahamiyatga molik xulosa va takliflardan obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish sohalarida resurslar samaradorligini baholash va oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati obodonlashtirish xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha muallif tomonidan taklif etilgan ilmiy va uslubiy yondashuvlarni obodonlashtirish tizimiga qo'llash, shuningdek, "Toza hudud" hududiy tuzilmasi faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmar qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "obodonlashtirish xizmati samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini hududlarda obodonlashtirish (ko'kalamzorlashtirish, qattiq chiqindi va chiqindixonalar bilan bog'liq xizmatlar, tungi yoritish tizimlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanishni

rivojlantirish, piyodalar yo‘laklarini qurish va ta‘mirlash, ichki irrigasiya tarmoqlarini qurish va ta‘mirlash) xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar va ulardan olinadigan daromadlar natijasi nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Tabiiy resurslar iqtisodiyoti” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 22-avgustdagi 284-sonli buyrug‘i hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2024-yil 30-avgustdagi 1-sonli qarori). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda hududlarda obodonlashtirish xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar va ulardan olinadigan daromadlar natijasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “obodonlashtirish xizmati samaradorligi” tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

obodonlashtirish xizmatlari korxonalari samaradorligini baholash obodonlashtirish xizmatlari sohasining moddiy-texnik bazasi ( $MTB = 0,37$ ), mehnat resurslari ta‘minoti ( $MRT = 0,24$ ) va malakalarini oshirish ( $MO = 0,39$ ) omillarining sohaga yo‘naltirilgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari darajasini hisobga olgan holda takomillashtirish taklifi Samarqand viloyati Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 21-fevraldagi №04-07-27-2088-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida obodonlashtirish xizmatlari sohasi omillarining sohaga yo‘naltirilgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari darajasini hisobga olish imkoni yaratilgan;

obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tarkibiga ekologik va obodonlashtirish muammolarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini hudud muvofiqlashtiruvchi kengashi orqali uyg‘unlashtirilgan “Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasteri” tashkiliy tuzilmasiga oid taklifi Samarqand viloyati Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 21-fevraldagi №04-07-27-2088-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasteri” tashkiliy tuzilmasi yordamida ekologik va obodonlashtirish muammolarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini hudud muvofiqlashtiruvchi kengashi orqali uyg‘unlashtirish imkoni yaratilgan;

obodonlashtirish xizmatlariga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida Samarqand viloyatida 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari Samarqand viloyati Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 21-fevraldagi №04-07-27-2088-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatida o‘rta muddatli istiqbolda obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning asosiy parametrlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta‘minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 9 xalqaro va 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 134 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatishning nazariy asoslari, obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirishning ahamiyati va samaradorlik ko'rsatkichlari baholash usullari hamda obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatish tizimining xorij tajribasi va undan respublikada foydalanish imkoniyatlari ilmiy asoslanilgan.

Respublika aholisi sonining oshib borishi obodonlashtirish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni ko'payishiga, shuningdek, obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatuvchi subyekti (DUK-davlat unitar korxonasi)lar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshishiga olib kelmoqda. Bu esa mamlakatimiz va uning hududlarida aholiga ko'rsatilayotgan obodonlashtirish xizmatlari samaradorligini oshirish imkoniyatlarini chuqur tahlil etish hamda sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Obodonlashtirish xizmati – bu ma'lum joy atrof-muhitini ko'kalamzorlashtirish, ularni turli chiqindilardan tozalash chiroyli obod yashil manzilga aylantirish uchun ifloslanishini oldini olishga qaratilgan iste'molchilarning qoniqish darajasini ifodalovchi xizmat ko'rsatish faoliyatidan iborat.


Obodonlashtirish xizmatlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishi sifatida ushbu tizim ob'ektlarini tizim foydalanuvchilarining talab va istaklarini inobatga olgan holda joylashtirish va tashkil etish hisoblanadi. Ushbu masalaga hududlarda etarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi sababli obodonlashtirish xizmatlariga bo'lgan talab oshib, xizmatlarning sifatli bajarilishi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Obodonlashtirish xizmati samaradorligi bu – hududlarda obodonlashtirish (ko'kalamzorlashtirish, qattiq chiqindi va chiqindixonalar bilan bog'liq xizmatlar, tungi yoritish tizimlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanishni

rivojlantirish, piyodalar yo‘laklarini qurish va ta‘mirlash, ichki irrigatsiya tarmoqlarini qurish va ta‘mirlash) xizmatlari bilan bog‘liq xarajatlar va ulardan olinadigan daromadlar natijasidan iborat.

Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, aholini sonini oshishi va unga monand ravishda chiqindi va ifloslanishning ko‘payib borishi atrof-muhitni toza saqlashni taqozo etib, bu yo‘nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishda esa soha taraqqiyotini tashkiliy shaklini tanlash hududiy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bugungi kunda yirik shaharlar va tumanlardagi obodonlashtirish xizmatlari - bu mazkur shahar va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, darajasini aks ettiradigan “ko‘zgu”dir. Jahon tajribalariga ko‘ra rivojlangan mamlakatlarda mamlakat obodligi, uning ekologik vaziyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar jamoatchilikka ochiq bo‘lishi va jamiyatning siyosiy va ijtimoiy hayotida etakchi o‘rinlardan birini egallashni taqozo etadi.

Respublikamizda atrof-muhitni toza saqlash, insonlarni turli kasalliklardan himoya qilish, shuningdek, mamlakatimizni “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish talablari asosida obodonlashtirish xizmatlarini chuqur tahlil etish asosida uning bir qator xususiyatlari asoslanildi (1-rasm).



**1-rasm. Xizmatlar sohasida obodonlashtirish xizmatlari ko‘rsatish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari<sup>6</sup>**

Tadqiqot ishida obodonlashtirish xizmatlari, xizmatlar sohasining alohida turi sifatida chuqur tadqiq etilib, bir qator muhim xususiyatlar (mavsumiy xarakterga ega emasligi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga ta‘sir darajasining

<sup>6</sup> Manba. Muallifning ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan

yuqoriligi va boshqalar) (jihatlari)ga ustuvorlik berildi. Shuningdek, dissertatsiyada obodonlashtirish xizmatlarining mavjud holati tahlil qilinib, bir qator o'ziga xos jihatlarga, jumladan, obodonlashtirish xizmatlari obyektlarining xizmat ko'rsatish me'yorlariga bevosita bog'liqligi asoslanildi.

Obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish me'yorlari – davlat tomonidan o'rnatiladigan obodonlashtirish normalari va qoidalari belgilanadigan, alohida hududlarning obodonlashtirish elementlarini normallashtirilgan to'plamidir. Har bir hudud ushbu normalar hamda qoidalar orqali nazorat qilib boriladi.

Obodonlashtirish xizmatlari alohida mujassamlashgan tizim sifatida bir tomondan, ushbu tizimdagi ijtimoiy jarayon sifatida aholining ehtiyojini qondirsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy jarayon sifatida esa chiqindilarni qayta ishlash, aholi sog'ligini saqlash, yuqori iqtisodiy daromad keltirish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur tadqiqot ishida obodonlashtirish xizmatlari iqtisodiyotini tadqiq etishda, ushbu xizmatlarni tarkibiga kiruvchi xizmat turlarini aniqlab olishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bugungi kunda respublikamiz va uning hududlarida obodonlashtirish xizmatlari tarkibi quyidagi xizmat turlaridan iboratligi asoslanildi. Jumladan:

- qattiq chiqindilardan tozalash xizmatlari;
- tungi ko'cha yoritish tizimini yaxshilash xizmatlari
- ichki irrigatsiya tarmoqlarini yaxshilash xizmatlari;
- piyodalar yo'llarini yaxshilash xizmatlari;
- ko'kalamzorlashtirishni amalga oshirish xizmatlari.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, obodonlashtirish xizmatlari iqtisodiy jarayon sifatida samaradorlik ko'rsatkichlarini tizimlashtirishni hamda uni alohida ko'rsatkichlar yordamida baholashni taqozo etadi. Shu sababli mazkur tadqiqot ishida obodonlashtirish xizmatlari samaradorligini aniqlash masalasi alohida iqtisodiy jarayon sifatida o'rganilib, ularning quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratildi.

Tahlil natijalariga ko'ra obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish muhim iqtisodiy jarayon sifatida quyidagi omillarga bog'liq hisoblanadi:

- obodonlashtirish xizmatlari uchun korxonaning moddiy-texnik bazasini oshirish;
- obodonlashtirish xizmatlariga jalb etilayotgan mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasiga;
- obodonlashtirish xizmatlari korxonalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning soha taraqqiyotini ta'minlovchi malaka darajasiga va boshqa bir qator omillarga bog'liqdir.

Tadqiqot ishida, obodonlashtirish xizmatlari korxonalari samaradorligini baholash obodonlashtirish xizmatlari sohasining moddiy-texnik bazasi ( $MTB = 0,37$ ), mehnat resurslari ta'minoti ( $MRT = 0,24$ ) va malakalarini oshirish ( $MO = 0,39$ ) omillarining sohaga yo'naltirilgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari darajasini hisobga olgan holda takomillashtirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dissertatsiyada respublikada obodonlashtirish xizmatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Obodonlashtirish xizmatlari korxonalarida samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari<sup>7</sup>

| Obodonlashtirish xizmatlari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning nomi                              | Aniqlanish formulalari                                                                                                                                                                                                                                                                              | Nimani ifodalanishi                                                                                            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish korxonalarida umumiy samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                |
| 1.<br>Obodonlashtirish xizmatlarining xarajatlar samaradorligi ( $S_{o.x}$ )                                 | $S_{o.x} = \frac{Z_{o.x}}{\sum X}$<br>$S_{o.x}$ – obodonlashtirish xizmatlari xarajatlar samaradorligi, (so'm);<br>$Z_{o.x}$ – obodonlashtirish xizmatlari hajmi, (ming so'm);<br>$\sum X$ - obodonlashtirish xizmatlarining jami xarajatlari so'mmasi                                              | 1 so'm qilingan xarajatlarga qancha obodonlashtirish xizmatlarini to'g'ri kelishi                              |
| 2.<br>Obodonlashtirish xizmatlaridan qoniqish darajasi indeksi ( $Z_{q1}$ )                                  | $Z_{q1} = \frac{Q_M}{J_M}$<br>$Z_{q1}$ - obodonlashtirish xizmatlaridan qoniqish darajasi indeksi;<br>$Q_M$ – obodonlashtirish xizmatlaridan qoniqqan mijozlar soni (kishi);<br>$J_M$ - obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatilgan jami mijozlar soni (kishi).                                        | Har bir mijozga ko'rsatilgan obodonlashtirish xizmatlaridan qoniqish darajasini ifodalaydi                     |
| 3.<br>Obodonlashtirish xizmatlari fondlar samaradorligi ( $S_{f.o.x}$ )                                      | $S_{f.o.x} = \frac{Z_{o.x}}{\sum Z_{AV+OV}}$<br>$S_{f.o.x}$ – obodonlashtirish xizmatlari fondlar samaradorligi (so'm);<br>$Z_{o.x}$ – obodonlashtirish xizmatlari hajmi, (ming so'm);<br>$\sum Z_{AV+OV}$ – obodonlashtirish xizmatlaridagi mavjud asosiy va aylanma fondlar qiymati, (ming so'm); | 1 so'm asosiy fondlarga to'g'ri keladigan obodonlashtirish xizmatlari qiymati                                  |
| 4.<br>Obodonlashtirishda mehnat unumdorligi ( $Z_{MU}$ )                                                     | $Z_{MU} = \frac{Z_{o.x}}{X_{o.x}}$<br>$Z_{MU}$ – obodonlashtirishda mehnat unumdorligi (so'm);<br>$Z_{o.x}$ – obodonlashtirish xizmatlari hajmi, (ming so'm);<br>$X_{o.x}$ - obodonlashtirishda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni                                                                   | obodonlashtirish xizmatlarida band bo'lgan 1 nafar xodimga to'g'ri keladigan obodonlashtirish xizmatlari hajmi |
| 5.<br>Obodonlashtirish xizmatlari rentabelligi ( $R_{o.x}$ )                                                 | $R_{o.x} = \frac{F_{o.x}}{\sum X} \times 100$<br>$R_{o.x}$ - obodonlashtirish xizmatlari rentabelligi, %;<br>$F_{o.x}$ - obodonlashtirishda xizmatlaridan olingan sof foyda, (ming so'm);<br>$\sum X$ - obodonlashtirish xizmatlarining jami xarajatlari so'mmasi                                   | 100 so'm ko'rsatilgan obodonlashtirish xizmatiga to'g'ri keladigan sof foydani ifodalaydi                      |

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan shu narsa ko'rinib turibdiki, obodonlashtirish xizmatlari samaradorligiga erishish sohaga qilingan xarajatlar, mehnat unumdorligini asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, sof foyda darajasiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Tadqiqot ishida xorijiy davlatlar tajribasi chuqur tadqiq qilingan. Unga ko'ra jahondagi etakchi rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan respublikamiz va uning hududlarida qo'yidagilarga ustuvorlik berish zarur deb hisoblaymiz:

- birinchidan, AQSh tajribasidan "Yagona ta'rif" asosida chiqindilarni olib chiqib ketish tizimini yo'lga qo'yilishi asosida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirish;

- ikkinchidan, Kanadaning Toronto va Avstraliyaning Sidney shaharlarida chiqindi idishining xajmiga qarab to'lovlar amalga oshiriladigan ta'riflar dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish amaliyotini qo'llash, ishlab chiqaruvchilarga atrof-muhitni kamroq ifloslantirganligi uchun turli soliq imtiyozlarini joriy etish;

- uchinchidan, Janubiy Koreya tajribasigfa ko'ra chiqindini qayta ishlab tizimining yana bir o'ziga xos jihati bu oziq-ovqat va qattiq chiqindilarning alohida jamlanmasini shakllantirish va bunda har bir chiqindi yig'ish shaxobchasida oziq-ovqat qoldiqlarini tashlash uchun alohida konteyner ajratish amaliyotini joriy etish;

- to'rtinchidan, Shvesiya tajribasiga asosan plastik idishlarni qayta ishlash asosida ulardan energiya olish tizimini yo'lga qo'yish va bunda aholi zich yashovchi massivlarda, mahallalarda va shaharning boshqa hududlarida bunday chiqindilarni qayta ishlab, elektr energiyasi sifatida foydalanish amaliyotini joriy etish;

- beshinchidan, Singapur tajribasiga ko'ra, shahar ko'chalarda tupirish yoki sigaret qoldiqlarini tashlash 1000 dollar, erga tashlangan qog'oz uchun esa 300 dollardan 1000 dollargacha jarima to'lash raqamli tizimi joriy qilingan. Mamlakatda chiqindi muammosi va aholining bu boradagi xatti-harakatlari yuqori jarimalar undirish orqali raqamlashtirilgan tizim asosida amalga oshiriladi. Bundan respublikamizda foydalanish aholini atrof-muhitni ifloslanishiga qarshi tarbiyalashda katta iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi;

- oltinchidan, Yaponiya davlati tajribasiga ko'ra, ushbu davlatda 90 foiz chiqindi qayta ishlanadi. Har bir fuqaro xonadonidan chiqqan chiqindilarni tashlashdan oldin saralaydi va noqonuniy tashlangan chiqindilar uchun katta jarima to'lovini amalga oshiradi;

- ettinchidan, Ispaniya davlatida mashina derzasidan uloqtirilgan chiqindi uchun 200 evro, sigareta qoldig'ini yo'lakka tashlaganlik uchun 90 evro jarima belgilangan. Ushbu tizim fuqarolarning har bir ishga ma'suliyat bilan yondashishini ta'minlaydi;

- sakkizinchidan, Germaniya davlati tajribasida ahloqsiz fuqarolarni "chiqindi izquvarlari" tomonidan nazorat qilish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bunda mamlakat ko'chalarda o'rnatilgan videokameralarda qayd etilgan hatti-harakat, maxsus qutiga tashlanmagan chiqindilar uchun 100 evrogacha jarima to'lashga asos bo'ladi. Sigaret qoldig'i, muzqaymoq yoki konfet qog'ozi, salqin ichimlik shishasini yerga tashlash 20 evro, saqichni, qoldiq ovqatlarni uloqtirish 35 evro,

eski mebel, elektron texnikani tashlaganlik uchun 150 evrodan 600 evrogacha jarima<sup>8</sup> to'lashlariga asos bo'ladi. Bunday amaliyotni respublikamizda joriy etish atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Jahonda obodonlashtirish xizmatlarini tizimli rivojlantirish nafaqat mamlakat tozaligiga, balki iqtisodiyotning taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, makulatura chiqindisidan qog'oz olishni yo'lga qo'yilishi, jahonda daraxtlarni ma'lum miqdorda kesilishini oldini olib, elektr energiya sarfini kamayishiga erishiladi.

Dissertatsiyaning **“Obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish tizimining institutsional asoslarini rivojlantirishning holat tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish tizimini taraqqiyot bosqichlari va institutsional asoslari, obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish tendensiyalari va mexanizmlari hamda obodonlashtirish xizmatlarini rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar tahlili va ulardan samarali foydalanish kabi masalalar tadqiq qilingan.

Respublikada, ayniqsa, uning alohida hududlarida obodonlashtirish xizmatlarini samarali rivojlantirish, ushbu xizmat turiga alohida e'tibor qaratish uning huquqiy-iqtisodiy asoslarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2013-yil 10-yanvardagi 4-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291 sonli qarori muhim xisoblanib, O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini 2028-yilgacha bo'lgan davrda shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, obodonlashtirish xizmatlari alohida iqtisodiy jarayon sifatida o'ziga xos rivojlanish tendensiyalarga ega. Bular jumlasiga:

birinchidan, iqtisodiy jarayon sifatida yuqori foyda olish va daromadli soha sifatida tizimli rivojlanish;

ikkinchidan, atrof-muhit tozaligini saqlash, chiqindilardan xolos bo'lish, sanitariya-gigiena qoidalarini bajarishga asoslangan iqtisodiyot tarmog'ini shakllantirish;

uchinchidan, chiqindilarni (qattiq) qayta ishlash oqibatida qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan yangi yuqori daromadli tarmoqni shakllantirish;


to'rtinchidan, aholini ish bilan bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromad olish imkoniyatini yaratishni yo'lga qo'yish.

Tahlil natijalariga ko'ra, obodonlashtirish xizmatlarini rivojlanishi yildan-yilga oshib borish tendensiyasiga ega. Tahlillarga ko'ra, 2017-yilda obodonlashtirish xizmatlarining eng asosiy turi hisoblangan “qattiq” chiqindi qiymati miqdori 12711,6 mln.so'mni tashkil etgani holda 2023 yilga kelib

---

<sup>8</sup> Ўзбекистонда чиқинди масаласи: қонун, муаммо ва ечим | <https://old.ekolog.uz/?p=2987>

1440331,20 mln.so‘mga o‘sgan. Bu esa, viloyat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda yangi ichki imkoniyatlarni vujudga keltiradi (2-rasm).



**2-rasm. Aholi soniga mos "qattiq" chiqindi miqdorining oshib borish dinamikasi (2017-2023)<sup>9</sup>**

Shunday ekan, obodonlashtirish xizmatlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishi bir tomondan aholining turmush sharoitini yaxshilash imkoniyatini yaratadi, ikkinchi tomondan "yashil hudud" tizimi bo'yicha obodonlashtirishda iqtisodiy natijadorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, respublikamizda obodonlashtirish xizmatlarini tizimli rivojlantirish uchun uning hududlaridagi mazkur jarayonni chuqur tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, Samarqand viloyatidagi obodonlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha diversifikatsiyalash holati tahlil qilindi (2-jadval).

Tahlil natijalariga ko'ra, Samarqand viloyatidagi obodonlashtirish xizmatlarini tizimli o'rganish uchun Samarqand viloyatidagi "Toza hudud" DUKning faoliyat dinamikasi o'rganildi (3-jadval).

Tahlil natijalariga ko'ra, 2023-yilda Samarqand viloyatidagi "Toza hudud" DUKning xizmatlari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,3 martaga oshgani holda, ushbu korxonada qilingan xarajatlar 1,2 martaga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot olib borilayotgan "Toza hudud" DUK ning 2023-yilda 2021-yilga nisbatan ijobiy moliyaviy natijasi ijobiy bo'lib, 2023-yilda olingan foyda qiymati 2494,7 mln.so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, obodonlashtirish xizmatlari yuqori samaradorlikka erishishining muhim sharti, faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Dissertatsiya ishida Samarqand viloyatidagi obodonlashtirish xizmatlarini amalga oshiruvchi "Toza hudud" DUK korxonasining ma'lumotlari asosida zanjirli

<sup>9</sup> Samarqand viloyati obodonlashtirish boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif xisob-kitoblari

almashish usulidan foydalanib, obodonlashtirish xizmatlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlanildi.

## 2-jadval

### Samarqand viloyati va uning alohida hududlaridagi obodonlashtirish xizmatlari turlari bo'yicha holati tahlili (2021-2023 yillar o'rtacha)<sup>10</sup>

| T/r           | Samarqand viloyati hudud va tumanlar nomi | Ichki irrigatsiya tarmoqlari ni qurish va ta'mirlash xizmati |                    | Piyodalar yo'laklarini qurish va ta'mirlash xizmatlari |                    | Tungi ko'cha yoritish tizimi xizmatlari |                    | Qattiq chiqindi va chiqindixonalar bilan bog'liq xizmatlar | Ko'kalamzorlashtirish xizmatlari |                    |
|---------------|-------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|--------------------|--------------------------------------------------------|--------------------|-----------------------------------------|--------------------|------------------------------------------------------------|----------------------------------|--------------------|
|               |                                           | miqdori (km)                                                 | qiymati (mln so'm) | miqdori (km)                                           | qiymati (mln so'm) | miqdori (dona)                          | qiymati (mln so'm) | qiymati (mln so'm)                                         | daraxt ekish                     |                    |
|               |                                           |                                                              |                    |                                                        |                    |                                         |                    |                                                            | miqdori (dona)                   | qiymati (mln so'm) |
| Jami          |                                           | 26,8                                                         | 4 590              | 57,7                                                   | 15 012             | 1 634                                   | 22 876             | 835                                                        | 59 920                           | 4 493,8            |
| Shu jumladan: |                                           |                                                              |                    |                                                        |                    |                                         |                    |                                                            |                                  |                    |
| 1.            | Samarqand shahri                          | 7,2                                                          | 1 080              | 4,0                                                    | 1 040              | 200                                     | 2 800              | 132,6                                                      | 1120                             | 75,1               |
| 3.            | Bulung'ur tumani                          | 2,0                                                          | 360                | 2,5                                                    | 650                | 72                                      | 1 008              | 53                                                         | 11 050                           | 746,0              |
| 4.            | Jomboy tumani                             | 2,0                                                          | 328                | 4,0                                                    | 1 040              | 100                                     | 1 400              | 65,2                                                       | 6 030                            | 321,5              |
| 5.            | Ishtixon tumani                           | 2,0                                                          | 321                | 3,0                                                    | 780                | 72                                      | 1 008              | 66,5                                                       | 1 081                            | 77,2               |
| 6.            | Kattaqo'rg'on tumani                      | 6,0                                                          | 758                | 4,0                                                    | 1 040              | 105                                     | 1 400              | 65,8                                                       | 5 230                            | 385,6              |
| 7.            | Narpay tumani                             | 2,0                                                          | 360                | 3,0                                                    | 780                | 140                                     | 1 960              | 66,8                                                       | 2 230                            | 160,8              |
| 8.            | Nurobod tumani                            | 2,0                                                          | 190                | 3,0                                                    | 780                | 60,1                                    | 840                | 65,2                                                       | 9860                             | 740,2              |
| 9.            | Oqdaryo tumani                            | 1,9                                                          | 280                | 3,0                                                    | 780                | 66                                      | 924                | 65                                                         | 1 090                            | 75,6               |
| 10.           | Payariq tumani                            | 4,0                                                          | 660                | 2,2                                                    | 572                | 101                                     | 1 410              | 63,6                                                       | 5 380                            | 421,3              |
| 11.           | Pastdarg'om tumani                        | 4,0                                                          | 650                | 5,0                                                    | 1 310              | 142                                     | 1 960              | 66,6                                                       | 920                              | 68,6               |
| 12.           | Paxtachi tumani                           | 2,0                                                          | 310                | 3,0                                                    | 780                | 72                                      | 1 008              | 65,5                                                       | 2 110                            | 162,5              |

## 3-jadval

### Samarqand viloyatida "Toza hudud" DUK xizmatlarining rivojlanish dinamikasi<sup>11</sup>

| T.r | Ko'rsatkichlar                              | Yillar kesimida |         |         | 2023 yil<br>2021 yil<br>nisbati % |
|-----|---------------------------------------------|-----------------|---------|---------|-----------------------------------|
|     |                                             | 2021            | 2022    | 2023    |                                   |
| 1.  | Jami ko'rsatilgan ish xajmi mln. so'm       | 26394,8         | 36028,1 | 34308,7 | 1,3                               |
| 2.  | Ishlovchilar soni kishi                     | 294             | 364     | 397     | 1,4                               |
| 3.  | Jami qilingan xarajatlar mln.so'm           | 27659,3         | 30593,6 | 31813,9 | 1,2                               |
| 4.  | Asosiy va aylanma fondlar kiymati mln. so'm | 64364,7         | 72171,3 | 74197,8 | 1,2                               |
| 5.  | Molyaviy natija (foyda zarar) mln. so'm     | -1264,4         | 5434,5  | 2494,7  | -2,0                              |

<sup>10</sup> Samarqand viloyati obodonlashtirish boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif xisob-kitoblari

<sup>11</sup> Samarqand viloyati obodonlashtirish boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif xisob-kitoblari

Samarqand viloyatidagi obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasining 2021-va 2023-yillardagi faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar misolida iqtisodiy tahlil qilishning zanjirli almashish usulini qo'llash orqali quyidagi natijalar olindi<sup>12</sup> (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini kursatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasining 2021 va 2023 yillardagi natijaviy ko'rsatkichlari<sup>13</sup>

| t/r | Ko'rsatkichlar                                                                            | 2021 yil | 2023 yil | Farq (+,-) |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------|----------|----------|------------|
| 1.  | Obodonlashtirish xizmatlari bo'yicha jami ko'rsatilgan ish xajmi, (mln. sum)              | 26394,8  | 34308,7  | +7913,9    |
| 2.  | Faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar soni ( $X_s$ ), (kishi)                                  | 294      | 397      | +103       |
| 3.  | Har bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish hajmi ( $T_{1x}$ ), (ming so'm) | 261,74   | 250,49   | -11,25     |
| 4.  | Hisobot davrida o'rtacha ish kuni ( $O_{ik}$ )                                            | 343      | 345      | +2         |

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida bu korxonada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar soni 103 kishiga oshgan, o'rtacha ish kuni 2 kunga oshgan holda har bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha ish xajmi 11,25 ming so'mga kamaygan va umumiy ko'rsatilgan ish hajmi umumiy so'mmasi 7913,9 mln. so'mga oshgan. Biroq, ushbu jadval ma'lumotlari Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud DUK" korxonasi umumiy xarajatiining, kamayishi qaysi omillar hisobiga sodir bo'lganligini to'liq izohlab bera olmaydi. Shu tufayli ko'p omilli tahlil usulini qo'llash asosida quyidagi natijalar aniqlandi (5-jadval).

#### 5-jadval

#### Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini kursatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasi umumiy xarajatida alohida omillar ta'sirining hisob-kitob natijalari<sup>14</sup>

| Ko'rsatkichlar                                                                   | 2021 yil | 2023 yil | Farqi (+,-) | Omillar ta'siri |
|----------------------------------------------------------------------------------|----------|----------|-------------|-----------------|
| Xodimlar soni ( $X_s$ ), (kishi)                                                 | 294      | 397      | +103        | 9246,59754      |
| Bir xodimga to'g'ri kelgan bir kunlik o'rtacha daromad ( $T_{1x}$ ), (ming so'm) | 261,74   | 250,49   | -11,25      | -1531,92375     |
| Hisobot davrida o'rtacha ish kuni ( $O_{ik}$ )                                   | 343      | 345      | +2          | 199,22621       |
| Umumiy daromad hajmi ( $U_t$ ), (mln. so'm)                                      | 26394,8  | 34308,7  | +7913,9     | X               |

<sup>12</sup>Пардаев М.Қ., Холикулов А.Н. Иқтисодиёт субъектларида омилли таҳлилни такомиллаштириш. Монография. Т.: Наврўз нашриёти. 2014 й. 64-108 бетлар.

<sup>13</sup>Самарқанд вилояти ободонлаштириш хизматларини курсатувчи "Тоza худуд ДУК хизмат кўрсатиш корхонасининг 2021 ва 2023 йиллардаги маълумотлари асосида муаллифнинг ишланмаси.

<sup>14</sup> Samarqand viloyati obodonlashtirish ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Demak, hisobot yilida Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasi xizmat ko'rsatishdan sarflangan umumiy xarajat hajmi 7913,9 (34308,7-26394,8) mln.so'mga oshgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida ro'y bergan.

1. Korxonadagi xodimlar sonining natija ko'rsatkichiga ta'sir ulushi quyidagi formulada keltirilgan hisob-kitob amallari orqali aniqlandi:

$$\Delta U_{h11} = (X_s^h * T_{1x}^h * O'_{ik}^h) - (X_s^r * T_{1x}^r * O'_{ik}^r) \quad (1)$$

$$\Delta U_{h11} = (397 * 261,74 * 343) - (294 * 261,74 * 343) = 35\,641\,397,54 - 26\,394\,800 = 9\,246\,597,54$$

Faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning 103 kishiga oshganligi Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini kursatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasining umumiy tushum hajmini 9246,59754 mln. so'mga (35641,39754 – 26394,800) kamaytirgan.

2. Bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha tushumning Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasining umumiy tushum hajmiga ta'siri quyidagi formula yordamida aniqlanadi, ya'ni:

$$\Delta U_{t,xs} = (X_s^x * T_{1x}^r * O'_{ik}^r) - (X_s^r * T_{1x}^r * O'_{ik}^r), \quad (2)$$

$$\Delta U_{t,xs} = (397 * 250,49 * 343) - (397 * 261,74 * 343) = 34\,109\,473,79 - 35\,641\,397,54 = -1\,531\,923,75$$

Demak, har bir xodimga to'g'ri keladigan bir kunlik o'rtacha tushumning 11,25 ming so'mga kamayganligi korxona umumiy daromad hajmini 1531,92375 mln. so'mga (34109,47379 – 35 641,39754) kamaytirgan.

3. Hisobot davrida o'rtacha ish kuni o'zgarishining korxona umumiy daromadi miqdoriga ta'siri quyidagi hisob-kitoblar orqali topildi:

$$\Delta U_{t,T1x} = (X_s^x * T_{1x}^x * O'_{ik}^r) - (X_s^x * T_{1x}^r * O'_{ik}^r), \quad (3)$$

$$\Delta U_{t,T1x} = (397 * 250,49 * 345) - (397 * 250,49 * 343) = 34308700 - 34109473,79 = 199226,21$$

Demak, hisobot davrida o'rtacha ish kunining 2 kunga oshgani sababli Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasi hajmi 199,22621 mln. so'mga (34308,700 – 34109,47379) kamaygan.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, tahlil qilingan uchta omillar ta'sirida Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasi 2023 yilda olingan umumiy daromadlar hajmi 2021 yildagiga nisbatan 7913,9 mln so'mga (34308,7 – 26394,8) ko'paygan, ya'ni:


$$\Delta U_t = 9\,246\,597,54 - 1\,531\,923,75 + 199\,226,21 = 7\,913\,900$$

Umuman olganda, Samarqand viloyati obodonlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi "Toza hudud" DUK korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar soni va hisobot davridagi o'rtacha ish kuni omillari boshqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir qilgan va faqat bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha tushumning - 11,25 ming so'mga kamayishi evaziga umumiy daromadlar hajmi kamaygan.

Darhaqiqat, obodonlashtirish xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi barcha omillarni tahlil qilish natijasiga ko'ra, sohani tizimli rivojlantirishda ichki imkoniyatlarni ochib beradi.

Dissertatsiyaning “**Obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo‘llari**” deb nomlangan uchinchi bobida obodonlashtirish xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, xizmatlar bozorini rivojlantirish tamoyillari hamda obodonlashtirish xizmatlari ko‘rsatish tizimlarida resurslardan samarali foydalanish yo‘llari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respublikamizda obodonlashtirish xizmatlarini ko‘rsatishni rivojlantirishni tizimli amalga oshirish bir qator ta’sir etuvchi tashkiliy, huquqiy-me’yoriy va iqtisodiy mexanizmlarga bog‘liq hisobanadi. Shu sababli, dissertatsiyada respublika hududlarida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari (tashkiliy, huquqiy-me’yoriy, iqtisodiy) asoslanildi (3-rasm).



**3-rasm. Respublika hududlarida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar<sup>15</sup>**

Shunday ekan, respublikada va uning hududlarida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishda tashkiliy mexanizmlar sifatida obodonlashtirish hududlarining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish, obodonlashtirish xizmatlarining

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi

tuzilmasini tashkil etish, zamonaviy tashkiliy standartlar hamda me'yorlar asosida xizmatlarni tashkil etish kabilarni o'z ichiga olgan bo'lsa, xuquqiy-me'yoriy mexanizm sifatida obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatishning xuquqiy – me'yorlari va normativ xujjatlarini shakllantirish, obodonlashtirish xizmatlarini loyihalashtirish bo'yicha litsenziyaga ega tashkilotlarning huquqiy-me'yoriy bazasini shakllantirish, obodonlashtirish boshqarmalari buyurtmanomalari asosida shartnomalarni ishlab chiqish kabi mexanizmlari takomillashtirilsa, iqtisodiy mexanizm sifatida sohaning xususiyatidan kelib chiqib, obodonlashtirish xizmatlarini raqamlashtirish orqali “Odamlar uchun shahar”, “yashil shahar”, “shahar bog” modellarini keng joriy etish, xorijiy investitsiyalar va imtiyozli xalqaro kreditlash tizimidan foydalanish, obodonlashtirish xizmatlari uchun ajratmalarni joriy etish (uy oldi-sotdi qilish tizimida, soliq va boshqa to'lovlarda) kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, tadqiqot ishida obodonlashtirish xizmatlari raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishni taqozo etishi ilmiy asoslanilgan. Unga ko'ra, obodonlashtirish xizmatlarida raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning modelini shakllantirish orqali soha faoliyatini rivojiga hissa qo'shish ilmiy asoslanilgan. Mazkur obodonlashtirish xizmatlarini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish bo'yicha “AIUD” (Artificial intelligence in urban development) modeli ishlab chiqilgan bo'lib unga ko'ra soha taraqqiyotini jadal rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu modelni shakllantirishda qonunchilik normalariga amal qilgan holda, raqamlashtirish uchun zarur kapitalni davlat, xorijiy investitsiya va obodonlashtirish boshqarmasi mablag'larini jalb qilish, hodimlar malakasini oshirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga takomillashtirish va xizmat ko'rsatishni yangi usullarini tadbiq etishni o'zida qabrab olishi lozim bo'lishi kerak. Ushbu model iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lib, obodonlashtirish xizmatlarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, obodonlashtirish xizmatlarini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish natijasida uning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

**birinchidan,** obodonlashtirish xizmatlarida raqamlashtirishning joriy qilish orqali insonlarning vaqti, mablag'i va energiyasi tejaladi. Shu orqali obodonlashtirish xizmatlarida mehnatning tejamkorligiga erishiladi;

**ikkinchidan,** obodonlashtirish xizmatlarini raqamlashtirishda mavjud muammolarni aniqlash bilan birga ularni eng oson raqamli usullar asosida bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu bilan birga obodonlashtirish xizmatlarini internet provayderlari orqali tez va masofadan turib bajarish mumkin bo'ladi;

**uchinchidan,** obodonlashtirish xizmatlarida raqamlashtirishlarni joriy etilishi sohada iqtisodiyot natijalarini sohtalashtirish imkoniyati cheklanadi. Bunda noaniq axborot tizimi bo'lishini cheklab sohta axborotlar turlarining faoliyatlariga yo'l qo'yilmaydi;


**to'rtinchidan,** obodonlashtirish tizimini raqamlashtirish korrupsiyaning oldini oladi. Bir marta kiritilgan axborotni ikkinchi marta o'zgartirishning imkoniyatini cheklaydi;

**bashinchidan**, obodonlashtirish bo'yicha dunyoning istalgan nuqtasidan axborot olish imkoniyati yaratilib katta vaqt sarfini tejash imkoniyatiga ega bo'linadi;

**oltinchidan**, obodonlashtirish xizmatlarini raqamlashtirishda turli zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yaratiladi. Natijada soha taraqqiyoti uchun ko'plab onlayn shartnomalarni amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, obodonlashtirish xizmatlarini samarali rivojlantirish alohida tuzilmani, ya'ni, klaster yondashuv asosida rivojlantirishni taqozo etadi va soha taraqqiyotida yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu borada respublikamiz turli soha va tarmoqlarida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'qidlash joizki, O'zbekistonda klasterlash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "... bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi"<sup>16</sup>. Shunday ekan, obodonlashtirishda klaster – bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan obodonlashtirish tizimidagi sub'ektlar majmui bo'lib, u ilm-fan, ta'lim hamda obodonlashtirish xizmatlar sohalarida integratsiyani chuqurlashtirishga mo'ljallangan tizimdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqot natijalariga natijalariga ko'ra Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasterining tashkiliy tuzilmasini taklif etdik (4-rasm).



**4-rasm. “Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasteri”ning tashkiliy tuzilmasi<sup>17</sup>**

<sup>16</sup> Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь.

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi

Respublikada obodonlashtirish hududiy klasterini alohida olingan hududlardagi imkoniyatlarini o'rganish, ushbu tizimning ichki imkoniyatlarini ochib beradi. Demak, obodonlashtirish hududiy klasteri yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan su'ektlar majmui bo'lib, ilm-fan, ta'lim hamda xizmatlar sohalarida integratsiyani chuqurlashtirish, fan-texnika yangiliklarini, innovatsion g'oyalarni, yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy eib, mehnat unumdorligini, qo'shimcha mahsulot yaratishni oshirish imkonini beruvchi xo'jalik tizimidir.

Tadqiqot ishining natijasiga ko'ra, taklif etilayotgan "Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klasteri" soha samaradorligini ta'minlovchi quyidagi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi:

- birinchidan, alohida olingan hududlarda obodonlashtirish xizmatlarini samarali amalga oshirish uchun barcha resurslardan (tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy) samarali foydalanish imkoniyatini beradi;

- ikkinchidan, obodonlashtirish xizmatlari iste'molchilarini alohida olingan hududda ehtiyojni to'liq qondirish imkonini beradi;


- uchinchidan, klaster a'zolari, hamkor tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar kuchaytirishda ishtirok etuvchi sub'ektlar daromadini oshirish imkoniyatini yaratadi;

- to'rtinchidan, obodonlashtirish xizmatlarini sifatli amalga oshirish bo'yicha yangi imkoniyatlarni yaratib, bu bo'yicha aniq mexanizmlarni qo'llashga uchun shart-sharoitni vujudga keltiradi;

- beshinchidan, obodonlashtirish klasteri ishtirokchilari yaxlit bir tizim asosida faoliyat yuritib, sohani uzluksiz va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishida Samarqand viloyatida obodonlashtirish xizmatlari rivojlantrish bo'yicha 2028-yilga qadar prognoz parametrlari ekonometrik model usullaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

Mazkur prognoz paramertlarni ishlab chiqishda ekonometrik modelning ARIMA usulidan foydalanilgan va unga ko'ra Samarqand viloyatida obodonlashtirish xizmatlarini kelgusi taraqqiyoti asoslanilgan (5 - rasm).



### 5-rasm. Samarqand viloyatida obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantrish bo'yicha 2028 yilga qadar prognoz parametrlari<sup>18</sup>

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Samarqand viloyatida 2023-yilda obodonlashtirish xizmatlari hajmi 15367,0 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2028-yilga borib, 20772,6 mln. so'mga oshishi prognoz qilindi.

## XULOSA

Dissertatsiya ishda obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantrishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi;

1. Obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantrish xizmat ko'rsatish iqtisodiyot tarmoqlarida va aholi turmush darajasini oshirishda muhim ahamyatga ega ekanligidan kelib chiqib, "obodonlashtirish xizmatlari", "obodonlashtirish xizmati samaradorligi" tushunchalariga mualliflik tarifi berildi va unga ko'ra, obodonlashtirish xizmati – bu ma'lum joy atrof-muhitini ko'klamzorlashtirish, ularni turli chiqindilardan tozalash chiroyli obod yashil manzilga aylantirish uchun ifloslanishini oldini olishga qaratilgan iste'molchilarning qoniqish darajasini ifodalovchi xizmat ko'rsatish faoliyatidan iborat ekanligi asoslanildi.

2. Obodonlashtirish xizmatlarining o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatni yaratuvchi xizmatlar sohasining turi sifatida bir qator o'ziga xos xususiyatlari, jumladan mavsumiy xarakterga ega emasligi, xizmatni amalga oshirish jarayoning katta hududlarda joylashganligi, insonlarning bevosita hayotiga hamda ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga tasir ko'rsatishi, shuningdek davlat aralashuvsiz yuqori natijadorlika erishish imkoniyatni pastligi kabi xususiyatlari ilmiy asoslanildi.

<sup>18</sup> Samarqand viloyati obodonlashtirish ma'lumotlari asosida muallif xisob-kitoblari

3. Tadqiqot ishda, obodonlashtirish xizmatlarni rivojlantirishning atrof-muhit ozodaligini saqlash, aholi turmush faravonligini taminlashdagi o'rniga ko'ra quyidagi xizmat turlarini ko'rsatish obodonlashtirish xizmatlari tarkibiga kirishligi jumladan, ko'kalamzorlashtirishni tashkil etish, qattiq chiqindilardan tozalash, tungi ko'cha yoritish, ichki irrigatsiya tarmoqlarini va piyodalar yo'llarini tizimli faoliyatni tashkil etish xizmatlari asoslanildi.

4. Obodonlashtirish xizmatlari alohida xizmat turi sifatida respublikada va alohida olingan hududlarda bir qator rivojlanish tendensiyalarga ega. Bular jumlasiga, birinchidan, muhim iqtisodiy-ijtimoiy jarayon sifatida atrof-muhit toza-ozodaligini saqlash, chiqindilardan xolos etish kabi jarayonlar bilan bog'liq iqtisodiy xarajatlarni tejash va daromadli soxaga aylantirish; ikkinchidan, ishchi o'rnini shakllantirish asosida aholi daromadni oshirish; uchinchidan, obodonlashtirishni yuqori daromad keltruvchi xizmat turi sifatida qattiq chiqindilarni qayta ishlashni tizimli yo'lga qo'yish va daromad olish imkoniyatini shakllantirish kabi tendensiyalar ilmiy asoslanildi.

5. Tadqiqot ishida, obodonlashtirish xizmatlari sohasini moddiy texnik bazasi, mehnat resurslari ta'minoti va malakalarini oshirish sohaga yo'naltirilgan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda obodonlashtirish xizmatlari korxonalari samaradorligi baholanib uni oshirish imkoniyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi takomillashtirildi;

6. Tadqiqot ishida, obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirish unga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq hisoblanadi. Tahlilarga ko'ra Samarqand viloyatidagi viloyat obodonlashtirish xizmatlarini amalga oshiruvchi "Toza hudud DUK" korxonasimalumotlari asosida tahlil qilinib, xodimlar soni, bir xodimga to'g'ri kelgan bir kunlik o'rtacha daromad, xisobot davrida o'rtacha ish kuni kabi omillar ta'siri ilmiy asoslanildi.

7. Tadqiqot ishda obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirish muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida hudud muvofiqlashtiruvchi kengash tizimiga asoslangan "Samarqand viloyati obodonlashtirish hududiy klaster" tizimi tashkiliy tuzilmasi ilmiy asoslanildi.

8. Tadqiqotda obodonlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning muhim iqtisodiy imkoniyati sifatida ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda 2028 yilga mo'ljallangan obodonlashtirish xizmatlari taraqqiyotining prognoz parametrlari ishlab chiqildi. Unga ko'ra Samarqand viloyatida obodonlashtirish xizmatlari hajmi 2028-yilda 20772,6 mln so'mgacha oshishi prognoz qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/25.12.2024.I.18.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

**ХАЙИТОВ ДЖАМШИД ХОЛВОЕВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ УСЛУГ  
ПО БЛАГОУСТРОЙСТВУ  
(НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Самарканд – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/Iqt4371.**

Диссертация выполнена в Самаркандском институте экономики и сервиса.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.sies.uz](http://www.sies.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

|                               |                                                                                                                                           |
|-------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Научный руководитель:</b>  | <b>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</b><br>доктор экономических наук, профессор                                                               |
| <b>Официальные оппоненты:</b> | <b>Тухлиев Искандар Суюнович</b><br>доктор экономических наук, профессор<br><b>Муртазаев Олим</b><br>доктор экономических наук, профессор |
| <b>Ведущая организация:</b>   | <b>Бухарский государственный университет</b>                                                                                              |

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ на заседании научного совета DSc.03/25.12.2024.I.18.01 по присуждению ученой степени при Самаркандском институте экономики и сервиса. Адрес: 140100, г.Самарканд, ул. Амир Темура, 9. Тел: (998 66) 233-19-84; Факс:(998 66) 231-12-53, e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского института экономики и сервиса (зарегистрировано № \_\_\_\_\_). Адрес: 140100, г.Самарканд, ул. Амир Темура, 9. Тел: (998 66) 233-19-84; Факс:(998 66) 231-12-53, e-mail: [sies\\_info@edu.uz](mailto:sies_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(протокол реестра № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).

**М.Э.Пулатов**

Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**Ш.О.Кувандиков**

Ученый секретарь научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, д.э.н., доцент

**М.Т.Алимова**

Председатель научного семинара  
по присуждению ученых  
степеней, д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире ежегодный рост численности населения, а вместе с ним и рост городов и развитие промышленности обуславливает проблему сохранения чистоты окружающей среды и требует ее благоустройство. Также установлено, что «ежегодно во всем мире образуется более 2 миллиардов тонн твердых отходов, и не менее 33 процентов из них перерабатывается с использованием экологически небезопасных методов»<sup>19</sup>. В соответствии с анализом, «около 23 процентов отходов в мире образуется в Восточной Азии и Тихоокеанском регионе, тогда как самый низкий показатель - на Ближнем Востоке и в Северной Африке — 6 процентов»<sup>20</sup>. Это в свою очередь свидетельствует об актуальности исследования организационно-экономического механизма совершенствования системы оказания услуг по благоустройству в мировом масштабе.

В условиях развития мировой экономики и ускоренной индустриализации экономики проводятся исследования проблем сохранения чистой окружающей среды на основе эффективной организации услуг по благоустройству. Совершенствование управления и планирования услуг по благоустройству, совершенствование механизмов финансирования и привлечения инвестиций, эффективное использование средств, выделяемых из государственного бюджета, организация услуг по благоустройству в рамках концепции «умный город», использование экологической устойчивости и зеленых технологий, совершенствование правовых норм в сфере благоустройства, усиление механизмов общественного контроля и гражданского участия, повышение кадрового потенциала в сфере благоустройства являются одними из приоритетных направлений научных исследований, проводимых в этом направлении.

В правильном и эффективном создании Нового Узбекистана совершенствование организационно-экономических механизмов развития системы услуг по благоустройству является одним из важных вопросов. Согласно стратегии «Узбекистан – 2030», исходя из цели «Повышение качества услуг по сбору и вывозу твердых бытовых отходов», наша республика ставит перед собой задачу «довести охват населения услугами по сбору и вывозу твердых бытовых отходов до 100%, а также повышение уровня переработки до 65%»<sup>21</sup>. Все это требует углубленного исследования таких вопросов, как совершенствование организационно-экономических механизмов услуг по вывозу отходов и благоустройству в нашей республике, организация услуг по благоустройству с использованием цифровых технологий, а также формирование региональных кластеров услуг по благоустройству.

---

<sup>19</sup> <https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-chiqindi-muammosi-qay-tarzda-hal-etiladi>

<sup>20</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии «Узбекистан - 2030»» <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

<sup>21</sup> Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии «Узбекистан - 2030»» <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 “О стратегии “Узбекистан-2030”, от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 18 марта 2022 года №ПП-172 «О мерах по реализации программ «Обод кишлок» и «Обод махалла» в 2022 — 2026 годах», от 17 апреля 2019 года №4291 «Об утверждении Стратегии по обращению с твердыми бытовыми отходами в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов», от 5 марта 2020 года №ПП-4351 «О дополнительных мерах по повышению эффективности работ в сфере благоустройства населенных пунктов», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 5 марта 2020 года №125 «О внесении изменений и дополнений в некоторые решения Правительства Республики Узбекистан (постановление Президента Республики Узбекистан от 4 июня 2019 года № ПП-4351 «О дополнительных мерах по повышению эффективности работ в сфере благоустройства населенных пунктов»)), от 10 января 2013 года №4 “ О мерах по совершенствованию организации работ по благоустройству населенных пунктов республик”, от 3 декабря 2013 года №315 «О мерах по развитию и совершенствованию системы санитарной очистки в населенных пунктах республики» и других нормативно-правовых документах, связанных с данной сферой.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» развития науки и техники республики.

**Степень изученности темы.** Первые исследования в этой области среди иностранных учёных проведены были Ф. Котлером, К.Р.Макконнеллом, С. Л. Брю, Р. Норманом, Г. Асселем, П. Дойлом, К.Хаксевером, Б. Рендером, Р. Расселом и В.И.Мердиком, В.И.Ширай., В.Е.Николайчук, Р.А.Фатхудиновым, Т.А.Агаповой, С.Ф.Серегиной, М.Б.Радкевичем, В.И.Сметаниным, Х.Н.Хсие, Дж.Р.Неттиаратчи, Дж.Джарамильо, К.Р.Редди, Дж.Э.Богнером, В.И.Далл, С.И.Ожеговым, В.И.Далем, К.Лавлоком, Б.Н. Герасимовым, Я.И.Ребаком, О.М.Харьковой, В.Н.Парахиной<sup>22</sup>.

---

<sup>22</sup> Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент//Экспресс-курс.2-е изд/перевод с англ. Под ре. Божун С.Г. СПб.: Питер. 2005. С-301., К.Р.Макконнелл, С.Л.Брю. Экономиск-Принципқ, проблемы и политика.//В 2-х томах. Перс ангю-Таллин. Римол. 1993. Т.: 1-398 С., Normann R. Service management strategy and leadership in service business/EDR Normann-NY/ 2000., Ассель Г. Маркетинг: принципы и стратегия: Учебник для вузов. М.: ИНФРА-М., 2001 С.337., Дойл П. Менеджмент: стратегия и тактика. Спб: Питер, 1999. С. 448., Хаксевер К., Рендер Б., Рассел Р., Мердик Р Управление и организация сефере услуг. М., 2002. С.25., Ширай В.И. Мировая экономика и международные отношения: Учебное пособие. М.: Дашков И.К. 2003. С. 226., Николайчук В.Е. Маркетинг и менежмент услуг//Деловой сервис. Спб.: Питер, 2005. С.608., Фатхудинов Р.А.Стратегический менежмент.: Учебник.: -М.ЮНИТИ-ДАНА, 2000. -727 С., Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика.: Учебник/Под общей ред.д.э.н., проф. А.В.Синдоровича; МГУ им М.В.Ломоносова 4-е

